



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



**MAKTABGACHA TA'LIMDA O'YINLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION
YONDASHUVLARI**

Sohobova Oyshaxon Asatullo qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

"Maktabgacha ta'lim va maxsus

Pedagogika "fakulteti sirtqi ta'lim

305-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada tarbiya haqida tushuncha, tarbiyaning asosiy turlari, o'yin texnologiyasi, tarbiya to'g'risida fikrlar, STEAM texnologiyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berishda o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi innovatsion yondashuvlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik va ekologik tarbiya, STEAM, o'yin texnologiyasi, innovatsiya, zamonaviy innovatsion yondashuvlar.

Аннотация. В статье рассматриваются понятие образования, основные виды образования, игровые технологии, представления об образовании, STEAM-технологии, инновационные подходы к использованию игровых технологий в образовании дошкольников.

Ключевые слова: образование, умственное воспитание, физическое воспитание, нравственное воспитание, экономическое воспитание, трудовое воспитание, эстетическое и экологическое воспитание, STEAM, игровые технологии, инновации, современные инновационные подходы.

Abstract; The article discusses the concept of education, the main types of education, game technology, ideas about education, STEAM technologies, innovative approaches to the use of game technologies in the education of preschool children.

Keywords: education, mental education, physical education, moral education, economic education, labor education, aesthetic and ecological education, STEAM, game technology, innovation, modern innovative approaches.

"Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi". SH.MIRZIYOYEV.

"In fact, the role and importance of the preschool education system in the life of our society, which is considered the most important link in the

upbringing of our children, cannot be measured by anything. It is precisely the attention paid to the field of preschool education that creates a solid foundation for the future development of the country." SH. MIRZIYOYEV.

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot ,yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” (Abdulla Avloniy).

Tarbiya – bu shaxsda jismoniy, ruhiy, axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Bu jarayon odamning jamiyatda yashashi uchun zarur bo’lgan xususiyatlarni o’zida namoyon etishini ta’minlashga xizmat qiladi va insoniyatning qadriyatlari bir avloddan ikkinchi avlodga o’tishini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi.

Tarbiya jarayonining ham o’ziga yarasha bir qancha metodlar va turlari mavjud. Tarbiya turlarini kengroq talqinda o’rganadigan bo’lsak u quyidagilardan iborat.

1. Aqliy tarbiya
2. Jismoniy tarbiya
3. Axloqiy tarbiya
4. Iqtisodiy tarbiya
5. Mehnat tarbiyasi
6. Estetik tarbiya
7. Ekologik tarbiya

Aqliy tarbiya - ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik ta’sir ko’rsatishdir. Demak, aql keng ma’noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o’z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig’indisi bo’lib, u yosh avlodning insoniyat to’plagan bilimlar, konikma va malakalar, me’yorlar, qoidalar va boshqalarda ro’y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishi ni ta’minlovchi xilma-xil vos talar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o’z ichiga oladi.

Jismoniy tarbiya – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, harakat malakalarini shakllantirish, salomatlikni mustahkamlash va harakat madaniyatini tarbiyalashga oid ilmiy asoslangan qarashlar tizimidir.

Axloqiy tarbiya- ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib ,insonlarning o’zi ,do’st-birodarlari ,jamo a’zolari va tabiatga bo’lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi xulq-odob qonun -qoidalarining majmui .Axloq kishining xulq-atvori, e’tiqod-iymoni, yurish-turishi ,fikir-mulohazalari ,mushohada va muloqotida

namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo'ladi.

Iqtisodiy tarbiya – bu maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalar, tejamkorlik, mehnatga hurmat, buyumlarni qadrlash, resurslardan oqilona foydalanish kabi ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni.

Mehnat tarbiyasi – bu maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga ijobiy munosabat, oddiy mehnat ko'nikmalari, mas'uliyat, tartiblilik va jamoada ishlash malakasini shakllantirish jarayoni.

Estetik tarbiya – bu maktabgacha yoshdagi bolalarda go'zallikni ko'ra bilish, qadrlash, his qilish va yaratish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir.

Ekologik tarbiya - bu insonni tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga, tabiatga nisbatan mehrli bo'lishi, atrof muhitni muhofaza qilishga oid ongli munosabatni shakllantirish jarayoni.

Tarbiya borasida Sa'diy Sheroziy shunday misralarni bitgan:

Minbarning poyida tursa ham eshak,

Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam.

Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi.

Eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.

Xitoy donishmandi Syun-Szi "Chaqaloqlar hamma erda bir xil yig'lashadi. Katta bo'lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati", deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuel Kant o'z asarida "Inson faqat tarbiya orqali inson bo'ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir", degan fikrni bildiradi.

Tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o'z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, "Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir", deb yozib qoldiradi.

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar", deydi.

Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalarini qo'llashning xususiyatlari.

STEAM an'anaviy o'qishga muqobil yondashuv hisoblanadi. Bunda bolalar Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik),



Art (san'at) va Mathematics (matematika)ni fanlararo bog'lanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda o'rganadilar.

STEAM ta'limi asosida yondashuv bolalarda dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab etishga o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali bolada qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o'zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi quyidagicha: amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. Bunda bolalar ta'lim jarayonida nafaqat o'z aqlini, balki yo'llarini ham ishlatishga majburlar. Ko'pgina mamlakatlarda STEAM-ta'limi quyidagi sabablarga ko'ra yuqori baholanadi. Hamkorlik - san'atga asoslangan ta'lim loyihalari boshqalar bilan yaxshi ishlaydigan bolalarni rag'batlantiradi va mukofotlaydi. STEAM ta'limi miyaning chap va o'ng tomonlarida ijodkorlikni rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinli texnologiyalardan foydalanish orqali ko'p samarali yutuqlarga erishilayotgani bizga ma'lum. O'yinli texnologiyalar asosini o'yin tashkil qiladi. O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy izchilligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirishning vositasi sifatida ta'riflaydi. Bizga ma'lumki, har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Ma'lumki, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;
- ijodiy xarakter, ya'ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;
- emotsional ta'sir-bola o'yinda markaziy o'rin egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;



-asosiy va qo'shimcha qoidalar o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

Pedagogik adabiyotlarda o'yinga berilgan ta'riflarni ko'plab uchratish mumkin, masalan, L.P.Borzova o'zining izlanishlarida "O'yin-bu ta'lim oluvchi uchun tabiiy o'qish usuli" hamda "Didaktik o'yin esa - bu subyekt uchun ma'lum bir holatdagi o'quv mashg'ullik faoliyatidir"-deya e'tirof etgan.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini maktabgacha yoshdagi bolalarning faollashtiruvchi hamda jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. Shuningdek, o'yinli texnologiyalar (o'yinli ta'lim)-bolalarning ijtimoiy tajribalarini o'zlashtirishining bari ko'rinishlari ya'ni bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga qaratilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan biri ya'ni pedagogik texnologiya hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli faoliyat shaklida qo'llaniladi. Ushbu faoliyatlarda bolalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli tarbiyalanuvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan mashg'ulotlar didaktik o'yinli faoliyatlar deb ataladi.

Maktabgacha talim tashkilotida faoliyatlarni tashkil qilish jarayonida bu davrni qiziqarli kechishi uchun tarbiyachi-pedagog, turli xil o'yinlar, o'yinli texnologiyalar tayyorlab qo'yishi zarur. Masalan tayyorlov guruhda elementar matematika faoliyati davomida yoki oxirida "ranglar" o'yinli texnologiyasini qo'llashimiz mumkin. Ushbu o'yinli texnologiyani o'tkazish jarayonida dastavval bolalarni guruhlariga ajratib olishimiz darkor. Guruhlarga ajratishni ham o'yin orqali amalga oshirishimiz mumkin.

Demak, o'yinli texnologiya ushbu bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich, "Guruhlanish bosqichi" bunda ishtirokchilar soniga qarab rangli qog'ozlar (qizil, sariq, yashil) kerak. Mashg'ulotgacha 2 yoki undan ko'prok jetoncha tayyorlab qo'yamiz bolalarning soniga qarab. Jetonchalar aralashtiriladi, har bir ishtirokchiga ya'ni tarbiyalanuvchiga beriladi. Guruhni bo'lish zarur bo'lganda, ishtirokchilarga ma'lum qilish kerak, bir xil rangli jetonchalar-bu 1-guruhda, 2-xil rangli jetonchalar-bu 2-guruhda ekanligidan dalolat beradi.

2-bosqich, "Asosiy bosqich" deb ham atashimiz mumkin. Bunda biz har bir guruhga maxsus tayyorlangan" materiallarni ya'ni rangli geometrik figuralar va rangli qutichalar taqdim qilamiz va shartlarni tushuntiramiz. Shartlar quyidagicha, bolalarga taqdim qilingan materillar, rangli geometrik figuralarni rangli qutichalarga rangi va shaklini aytib, solishlari kerak bo'ladi. 3-bosqich, "Yakuniy bosqichimiz" esa o'yinli texnologiyalarni yakunlash hamda ishtirokchilarni rag'batlantirish kabi qismlardan iborat. Mazkur o'yinli



texnologiyani qo'llash orqali bolalarni faoliyatdan olgan bilimlari mustahkamlab olinadi, o'zaro do'stlik, hamjihatlik tuyg'ulari shakllanadi va kayfiyatlariga ham ta'sir qiladi.

Keyingi o'yinli texnologiyamiz esa "Blits o'yin" texnologiyasi ushbu o'yinli texnologiyadan foydalanish orqali biz har bir bolalarda chaqqonlik, hozirjavoblik hamda jamoada ishlash va o'zaro hurmat shakllanadi. Elementar matematika faoliyatida bu o'yinli texnologiyani fasllar, ulardagi hodisalarni anglash va fazoga qarab mo'ljal olish malakalarini mustahkamlash uchun qo'llashimiz mumkin.

Maktabgacha ta'limda **STEAM** metodining amaliy qo'llanilishi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun **tajriba kuzatish eng samarali ta'lim metodlaridan biridir:**

Masalan, **"Suv va muhit" tajribasi** orqali bolalar suvning qaysi holatlarda oqishi, bug'lanishi va muzlashi haqida oddiy tajribalar o'tkazishi mumkin. Yana biri **Robototexnika va qurilish loyihalarida** STEAM metodida **Lego va oddiy muhandislik vositalari** yordamida **o'z qurilmalarini yaratish** bolalar uchun muhim amaliy tajribani ta'minlaydi.

Masalan, **oddiy shamol tegirmonini yasash** orqali bolalar shamol energiyasining ishlash tamoyillarini o'rganishi mumkin. Shuningdek, Tasviriy san'at va musiqa STEAM metodining ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, bolalar **tashqi muhitdagi tabiiy hodisalarni tasvirlash yoki musiqa orqali ifodalash** orqali o'z tasavvurini boyitadi.

Yana bir muhim texnikalardan biri bu o'yin orqali o'rganish bolalarning tabiiy rivojlanish jarayoniga mos tushadi. Pedagoglar o'yin jarayonida bolalarga muhim ijtimoiy qoidalar va hayotiy ko'nikmalarni singdirishlari mumkin. Bu usul bolalarning muloqot qilish, jamoa bo'lib ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. O'yin paytida bolalar boshqalar bilan faol aloqada bo'lishadi. Ular umumiy til topishni o'rganadilar, birgalikdagi faoliyat ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu o'zaro ta'sirlar nafaqat fikr va tajriba almashish imkoniyatini yaratadi, balki ijtimoiy me'yorlar va qoidalarini tushunish uchun asos yaratadi.

O'yin usullari bolalarga boshqa qahramonlar sifatida yashashga, o'zlarini joyida his qilishga va his-tuyg'ularini tushunishga imkon beradi. Masalan, "shifokor" o'ynaganda, bola "bemor" uchun javobgarlikni his qilishi va uning farovonligi haqida qayg'urishi mumkin. Ssenariylarda esa bolalar faol muloqot qiladilar, o'z fikrlarini bildiradilar va boshqalarning fikrlarini Tinglaydilar. Masalan, "do'kon" yoki "maktab" rolli o'yinlarida bolalar o'z fikrlarini aniq va aniq ifoda etishni, shuningdek, o'yindagi sheriklarining muloqotini idrok etish va tushunishni o'rganadilar. Shunday qilib o'yin

usullari jamoadahamkorlik va ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Masalan, birgalikda qurish yoki konstruktorlar yordamida loyihalar yaratish orqali bolalar g'oyalarni muhokama qilishni, mas'uliyatni baham ko'rishni, nizolarni hal qilishni va birlik sifatida harakat qilishni o'rganadilar. Shuni aytish joizki, zamonaviy metodlar bolalarning **emotsional farovonligini** ham qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, art-terapiya va musiqiy mashg'ulotlar bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va boshqarishni o'rgatadi. Bu esa bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiya - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda bolalarga yangi bilim berishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol metodlardan samarali foydalanish bu pedagogning kreativligiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o'yin, dramatizatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin

Zamonaviy metodlar va innovatsion yondashuvlar maktabgacha ta'limda bir qancha amaliy natijalarni ta'minlashi mumkin, Xususan:

- **Mustaqil fikrlash va ijodkorlikning oshishi.**
- **Ijtimoiy va muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi.**
- **Amaliy bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.**
- **Texnologik savodxonlikning oshishi va raqamli dunyo bilan tanishuv.**

Kelgusida, maktabgacha ta'limda ushbu yondashuvlarni keng joriy etish orqali bolalarning shaxsiy rivojlanishi va kelajakda murakkab muammolarni hal qilishga tayyor bo'lishlari ta'minlanishi kutilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy metodlar va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va amaliy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar: "Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi".

Demak, tarbiyachining innovatsion faoliyati, bu uning pedagogik mahorati belgisidir. Innovatsion texnologiyalarning har bir turi bolalarda faqatgina yangi bilim hosil qilishga xizmat qilibgina qolmasdan, balki ularda har tomonlama rivojlanish xizmat qila oladi. Ma'naviy savodxonligi sust bo'lgan inson hayot davomida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar oldida esankirab qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Maktabgacha ta'lim metodik qo'llanma.
2. Qodirova "Maktabgacha pedagogika"
3. Tunik E.E. "Ijodiy fikrlash diagnostikasi".
4. Vygotsky. L. S. Mind in society; The Development of Higher Psychological Processes.
5. Venger L. A, Dyachenko O. M "Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlar va mashqlar".